Raqamli texnologiyalar — IoT (buyumlar interneti), blokcheyn va qo'shma ishlab chiqarish (additive manufacturing) — ushbu tizimlarni yanada takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq, ularni joriy etish yuqori darajadagi investitsiyalarni, rivojlangan texnologik infratuzilmani hamda malakali kadrlarni talab etadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, raqamli tizimlardan keng foydalanish kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasini ta'minlashni ham muhim vazifa sifatida kun tartibiga olib chiqadi.

Shu bilan birga, T. Makov va D. Font Vivanco kabi tadqiqotchilar sirkulyar strategiyalarni amalga oshirishda mavjud ayrim cheklavlarni ham ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Jumladan, qayta ishlash ko'plab sirkulyar munosabatlarda markaziy o'rin tutishiga qaramay, sifatning pasayishi (downcycling), yuqori energiya sarfi hamda materiallarni tiklash tizimlarining samaradorligi bilan bog'liq masalalar kuzatilishi mumkin⁸.

Bundan tashqari, J. Warmington-Lundström va R. Laurenti ilmiy ishlarida "rebound effekti", ya'ni samaradorlik oshishi natijasida xarajatlarning kamayishi va iste'molning ortishi kuzatilishi mumkinligi qayd etilgan. Bu holat ayrim sharoitlarda ekologik samaradorlikni kamaytirishi ehtimolini yuzaga keltiradi⁹. Shu sababli, uzoq muddatli dizayn kabi yuqori samarali strategiyalarni ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish hamda sirkulyar amaliyotlarni barqarorlikni baholash vositalari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega¹⁰.

7 Psarommatis, F., & May, G. (2025). A cost-benefit model for sustainable product reuse and repurposing in circular remanufacturing. *Sustainability*, 17(1), 245. <https://www.mdpi.com/2071-1050/17/1/245>

8 Makov, T., & Font Vivanco, D. (2018). Does the circular economy grow the pie? The case of rebound effects from smartphone reuse. *Frontiers in Energy Research*, 6, 39. <https://www.scopus.com/pages/publications/85046623880>

9 Warmington-Lundström, J., & Laurenti, R. (2020). Reviewing circular economy rebound effects: The case of online peer-to-peer boat sharing. *Resources, Conservation and Recycling*, X, 5, 100028.

10 Rigamonti, L., & Mancini, E. (2021). Life cycle assessment and circularity indicators. *The International Journal of Life Cycle Assessment*, 26, 1937–1942.



Shuningdek, xorijiy olimlar E. J. Prosman va R. Cagliano o'z ilmiy tadqiqotlarida rekonstruksiya va ta'mirlash jarayonlari sirkulyar iqtisodiyotning muhim ustunlari sifatida rivojlanib borayotganini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, mazkur

yondashuvlar sezilarli darajada resurslarni tejash va iqtisodiy qiymatni qayta tiklash imkonini beradi. Ishlab chiqarish amaliyotlari, xususan, avtomatlashtirish va raqamli egizaklar (digital twins) kabi ilg'or texnologiyalar yordamida rekonstruksiya qilishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda¹¹.

Shu bilan birga, ushbu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mahsulot dizayni, iste'molchilar tomonidan qabul qilinishi hamda standartlashtirilgan sertifikatlash tizimlari va teskari logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

Bizning nuqtayi nazarimizdan, yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar sirkulyar iqtisodiyotga nisbatan yanada realistik va kompleks qarashni shakllantiradi. Ularning qayta ishlash jarayonidagi ayrim muammolar — sifatning pasayishi, yuqori energiya sarfi hamda tizim samaradorligining cheklanganligi — haqidagi fikrlari amaliyotda uchraydigan holatlarni aks ettiradi. Ayniqsa, "rebound effekti"ga oid qarashlar muhim ahamiyat kasb etib, samaradorlik oshishi bilan birga iste'mol hajmi ham ortishi mumkinligini va natijada kutilgan ekologik samaradorlik pasayishi ehtimolini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, rekonstruksiya va ta'mirlash jarayonlariga ustuvor ahamiyat berilishi eng maqbul yo'nalishlardan biri sifatida baholanadi. Chunki ushbu yondashuvlar resurslarni tejash bilan bir qatorda mavjud iqtisodiy qiymatni maksimal darajada saqlab qolish imkonini beradi. Biroq, mazkur strategiyalarni keng joriy etish nafaqat texnologik omillarga, balki iste'molchilarning munosabati, mahsulot dizayni hamda institutsional qo'llab-quvvatlash tizimlarining rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Demak, ushbu yondashuvlar sirkulyar iqtisodiyotning imkoniyatlari bilan bir qatorda uning ayrim cheklovlarini ham yoritib, yanada muvozanatli va kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli sohalarida sirkulyar strategiyalarni qo'llash ekologik samaradorlik va resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan ijobiy natijalar beradi. Biroq ushbu natijalar barcha holatlarda bir xil bo'lmay, muayyan sharoit va kontekstga bog'liq holda farqlanadi. Ya'ni, sirkulyar iqtisodiyotning muvaffaqiyati uni qanday sharoitda va qanday usullar orqali amalga oshirishga bevosita bog'liqdir.

Ba'zi holatlarda esa strategiyalar o'rtasida muvozanat (trade-off) yuzaga keladi. Eng yuqori samaradorlikka erishish uchun strategik muvozanatni ta'minlash muhimdir. Bu esa mahsulot xizmat muddatini texnologik rivojlanish darajasi bilan uyg'unlashtirish, qayta ishlash jarayonlarini yanada takomillashtirish hamda "rebound effekti"ni davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlari orqali kamaytirishni talab etadi.

Sirkulyar iqtisodiyotni amaliyotga joriy etishda teskari logistika (ya'ni foydalanilgan mahsulotlarni qayta yig'ish) va yopiq ta'minot zanjirlari muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu tizimlar ko'pincha tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaning yetarli darajada uyg'un emasligi va yuqori xarajatlar sababli bosqichma-bosqich takomillashtirishni talab etadi.

B. Corona, L. Shen, D. Reike va J. R. Carreón kabi olimlar o'z tadqiqotlarida baholash usullarini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar¹². Ular dinamik va natijaga yo'naltirilgan hayot sikli tahlili (Life Cycle Assessment — LCA) hamda Material Circularity Indicator (MCI) kabi ko'rsatkichlarni birgalikda qo'llashni taklif etadilar. Ushbu yondashuv mahsulotning ko'p siklli hayoti davomida uning ekologik ta'siri va sirkulyar samaradorligini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, LCA metodologiyalarini yanada takomillashtirish zarurligi ham qayd etiladi. Xususan, ko'p martalik sikllar, ikkilamchi materiallarning sifat jihatdan o'zgarishi hamda uzoq muddatli vaqt omillarini hisobga olish bo'yicha mavjud yondashuvlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar sirkulyar strategiyalarni turli sohalarida qo'llash imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi. Biroq amaliyotda yuqori qo'shimcha qiymat keltiradigan strategiyalar (masalan, rekonstruksiya va qayta foydalanish) nisbatan murakkabligi sababli bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Aksincha, qayta ishlash kabi nisbatan sodd va keng qo'llaniladigan strategiyalar tezroq ommalashmoqda.

Mazkur tafovutlarni bartaraf etish uchun nazariy yondashuvlar bilan amaliyot o'rtasidagi uyg'unlikni kuchaytirish zarur. Bu esa tizimli yondashuvlarni rivojlantirish, turli darajadagi islohotlarni izchil amalga oshirish hamda davlat siyosatining samarali muvofiqlashtirilishini taqozo etadi.

Mazkur yondashuvlar sirkulyar iqtisodiyotning samaradorligini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ayniqsa, strategiyalarni turli kontekstlarga moslashtirish zarurligi haqidagi fikr ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Chunki har bir soha va hudud o'ziga xos iqtisodiy, texnologik

11 Prosman, E. J., & Cagliano, R. (2022). A contingency perspective on manufacturing configurations for the circular economy: Insights from successful start-ups. *International Journal of Production Economics*, 249, 108519. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0925527322001128>

12 Corona, B., Shen, L., Reike, D., Carreón, J. R., & Worrell, E. (2019). Towards sustainable development through the circular economy: A review and critical assessment of current circularity metrics. *Resources, Conservation and Recycling*, 151, 104498.



va institutsional sharoitlarga ega. Shu bois yagona universal yechim mavjud emasligi va har bir holatda moslashuvchan yondashuvni qo'llash zarurligi to'g'ri ta'kidlangan.

Bundan tashqari, "rebound effekti"ni inobatga olish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko'pincha samaradorlik oshirilganiga qaramay, umumiy iste'mol hajmining ortishi natijasida kutilgan ekologik samaradorlik to'liq namoyon bo'lmasiligi mumkin. Bu esa sirkulyar strategiyalarni nafaqat texnik choralar orqali, balki davlat siyosati, tartibga solish mexanizmlari hamda iste'mol madaniyatini rivojlantirish orqali qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, yuqori qiymatli strategiyalar (masalan, rekonstruksiya va qayta foydalanish)ning amaliyotda nisbatan kam qo'llanilishi muhim jihatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu holat, bir tomondan, ushbu strategiyalarning murakkabligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, biznes subyektlari uchun qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlarning ustuvorligi bilan ham bog'liqdir. Natijada, nisbatan sodda va tez amalga oshiriladigan qayta ishlash strategiyalari kengroq qo'llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mazkur yondashuvlar sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ilmiy asos yaratadi. Biroq ularni samarali amalga oshirish uchun tizimli yondashuvni shakllantirish, siyosiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda nazariy qarashlar bilan amaliy mexanizmlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, statistik va empirik usullardan keng foydalanildi. Avvalo, ilmiy adabiyotlar sharhi orqali sirkulyar iqtisodiyotning nazariy asoslari, asosiy tamoyillari hamda rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Xususan, "3R" modeli, hayot sikli tahlili (LCA) va material oqimlari tahlili (MFA) kabi metodologik yondashuvlar asos sifatida qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik qismi O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish tizimi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga qaratildi. Jumladan, chiqindilar hajmi, qayta ishlash darajasi, chiqindi yig'ish texnikalari soni hamda poligonlar faoliyati dinamikasi o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida tendensiyalar aniqlanib, tizim samaradorligi baholandi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali davlat siyosatining sirkulyar iqtisodiyotga ta'siri baholandi. Tahlil jarayonida sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'un holda qo'llanilib, natijalar umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari orqali shakllantirildi. Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish sohasida 2025-yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida muhim ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Ekologiya qo'mitasi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tomonidan olib borilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida respublikada mavjud 9 452 ta mahallada yashovchi 37,5 mln nafar aholining 8 105 ta mahallasi, ya'ni 23,9 mln nafari sanitar xizmatlar bilan qamrab olindi.

2025-yil yakunlariga ko'ra, respublikada 15,1 mln tonna maishiy chiqindi hosil bo'lgan. Aholi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun 1 trln 304 mlrd so'm miqdorida to'lovlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, debitor qarzdorlik hajmi 622,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, tizimni takomillashtirish doirasida ko'rsatilmagan xizmatlar uchun hisoblangan 211,9 mlrd so'm miqdoridagi noreal qarzdorliklar elektron tizimdan chiqarildi. Bu esa moliyaviy hisob-kitoblarning aniqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qildi¹³.

2024-yilda respublikada 14,8 mln tonna maishiy chiqindi hosil bo'lgani qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich iqtisodiy faollik va iste'mol darajasining oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, chiqindilarni tashish ishlari ham izchil amalga oshirilib, xususan, 2024-yilda 41,3 mln kub metr qattiq maishiy va boshqa turdagi chiqindilar tashilgan.

Sirkulyar iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash darajasi bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda hosil bo'lgan 14,8 mln tonna chiqindining qariyb 5–5,2 foizi qayta ishlangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, yilning birinchi yarmida 5,2 mln tonna chiqindidan 270 ming tonnasi qayta ishlangan. Ushbu ko'rsatkichlar kelgusida qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish va texnologik salohiyatni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishida muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Toza Makon" yagona elektron billing tizimi joriy etildi. 6 ta hududda ekonoat zonalarini tashkil etilmoqda, 11 ta hududda jami 14 ta qayta yuklash punktlari barpo etilmoqda. Andijon,

13 <https://gov.uz/oz/sanitation>



Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida chiqindilarni termik usulda qayta ishlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi zamonaviy zavodlar qurilmoqda. Shuningdek, Toshkent shahri hamda Samarqand va Buxoro viloyatlarida tibbiyot chiqindilarini utilizatsiya qilish orqali issiqlik energiyasi ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

2025-yil holatiga ko'ra, sanitar tozalash korxonalariga 79 ta chiqindi tashish texnikasi hamda 220 ta konteyner topshirildi. Bundan tashqari, 3 230 ta maxsus chiqindi tashish texnikasiga GPS qurilmalari o'rnatilib, ularning harakatini monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yildi. 113 ta sanitar tozalash korxonasi faoliyatining samaradorligi muntazam baholab borilmoqda. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sohaga oid 21 300 ta murojaatlarning ko'rib chiqilishi ham tizimning ochiqligi va aholiga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.


Shuningdek, umumiy maydoni qariyb 100 gektarni tashkil etuvchi 23 ta qattiq maishiy chiqindi poligonining faoliyati to'xtatildi¹⁴. Bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va zamonaviy chiqindilarni boshqarish tizimiga o'tish yo'lidagi muhim qadamdir.

Chiqindilar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, plastik chiqindilar umumiy maishiy chiqindilar tarkibida sezilarli ulushga ega. Xususan, yiliga hosil bo'ladigan chiqindilarning o'rtacha 10,3 foizi plastmassa hissasiga to'g'ri keladi. Ayrim manbalarda ushbu ko'rsatkich 15 foiz atrofida ekanligi ham qayd etilgan. Bu esa plastik chiqindilarni qayta ishlash quvvatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Infratuzilmaviy rivojlanish doirasida 2024–2025-yillarda 42 ta chiqindi poligonining faoliyati to'xtatilib, ular rekultivatsiya qilindi. Bundan tashqari, yana 18 ta poligonni 2025-yil yakuniga qadar yopish rejalashtirilgan. Mazkur chora-tadbirlar chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sirkulyar iqtisodiyotga o'tish yo'lida chiqindilar hajmini kamaytirish, qayta ishlash quvvatlarini oshirish hamda infratuzilmani rivojlantirish borasida izchil va bosqichma-bosqich natijalarga erishmoqda. Shu bilan birga, qayta ishlash ulushi hozirgi bosqichda nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Kelgusida davlat siyosatining izchil davom ettirilishi, shuningdek, biznes subyektlari va aholi o'rtasidagi hamkorlikning kuchaytirilishi orqali ushbu ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash va tizim samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasida sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda chiqindilarni yig'ish bo'yicha maxsus texnikalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatda chiqindi yig'ish maxsus texnikalari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, O'zbekistonda chiqindi yig'ish maxsus texnikalari soni 2017-yilda 1 461 tani, 2018-yilda 1 893 tani, 2020-yilda 2 565 tani, 2022-yilda 3 044 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 3 390 taga yetgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda chiqindi yig'ish maxsus texnikalari soni¹⁵

Birinchidan, chiqindi yig'ish texnikalari sonining ortishi chiqindilarni o'z vaqtida va to'liq yig'ib olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa chiqindilarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirib, noqonuniy chiqindi

¹⁴ <https://gov.uz/oz/sanitation/news/speeches>


¹⁵ <https://gov.uz/oz/sanitation/news/speeches>



tashlash holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy tamoyillaridan biri chiqindilarni resurs sifatida qayta ishlash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, maxsus texnikalar sonining ortishi chiqindilarni markazlashgan tartibda yig'ish hamda ularni qayta ishlash korxonalariga yetkazib berish samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, texnikalar sonining ko'payishi chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani shakllantiradi. Sirkulyar iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yetarli miqdordagi maxsus texnikalar mavjud bo'lganda qog'oz, plastmassa, metall va organik chiqindilarni alohida yig'ish imkoniyati kengayadi. Natijada qayta ishlash darajasi oshib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishda tabiiy resurslardan foydalanish hajmi qisqaradi.

Uchinchidan, chiqindi yig'ish texnikalarining ko'payishi shahar va qishloq hududlarida sanitariya holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Toza va sog'lom muhit sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan yukni kamaytiradi hamda aholining turmush sifatini oshiradi. Bu esa sirkulyar iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga to'liq mos keladi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston hududlarida chiqindi yig'ish maxsus texnikalarining taqsimlanishi, dona (2024-y.)¹⁶

To'rtinchidan, chiqindi yig'ish tizimining rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratishga hamda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga xizmat qiladi. Maxsus texnikalarni boshqarish, ularga texnik xizmat ko'rsatish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash jarayonlari qo'shimcha mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Bu esa iqtisodiy o'sish va bandlik darajasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchidan, texnikalar sonining ortishi sirkulyar iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Chiqindilarni qayta ishlash orqali ikkilamchi resurslar ishlab chiqarish hajmi kengayadi, import qilinadigan ayrim xomashyolarga bo'lgan ehtiyoj kamayadi hamda mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlari rivojlanadi. Natijada iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanish darajasi oshadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda chiqindi yig'ish maxsus texnikalari sonining ortib borishi sirkulyar iqtisodiyot infratuzilmasini mustahkamlash, chiqindilarni samarali boshqarish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayon kelgusida chiqindilarni qayta ishlash ulushini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan zamonaviy iqtisodiy modelni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda muhim normativ-huquqiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi 5-son Farmoni¹⁷ alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur farmonga muvofiq, chiqindilarni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida Chiqindi poligonlarini boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi huzuridagi Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi tomonidan poligonlar ustidan muntazam nazorat o'rnatilib, ularning faoliyati tizimli ravishda tartibga solinmoqda.

¹⁶ <https://gov.uz/uz/sanitation>

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.01.2024 yildagi PF-5-son <https://lex.uz/uz/docs/-6732832>



Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda respublika hududida umumiy 1 824 gektar yer maydonida jami 228 ta chiqindi poligoni faoliyat yuritmoqda. Ushbu poligonlarning 199 tasi maishiy chiqindilar, 15 tasi zaharli-kimyoviy chiqindilar hamda 14 tasi qurilish chiqindilarini joylashtirish uchun mo'ljallangan.

So'nggi yillarda chiqindi poligonlarini optimallashtirish va ekologik xavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024–2025–yillar davomida respublikaning 8 ta hududi — Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida jami 47 ta maishiy chiqindi poligoni rekultivatsiya qilinib, ularning faoliyati yakunlandi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida qariyb 243 gektar yer maydoni tabiiy muhitga qaytarildi.

Shu bilan birga, tasdiqlangan reja-grafik asosida respublika bo'yicha foydalanilayotgan jami 132 ta chiqindi poligonida muntazam ravishda tuproq qatlami bilan yopish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlar poligonlarning sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligini ta'minlash, atmosferaga zararli moddalar tarqalishini kamaytirish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025–yilning yanvar–oktabr oylarida chiqindi poligonlariga jami 2,6 mln tonna chiqindi qabul qilingan. Nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi natijasida hududlarda kunlik qabul qilinayotgan chiqindi miqdori 8,5 ming tonnadan 13 ming tonnaga yetkazildi hamda qo'shimcha ravishda kuniga 4,5 ming tonnagacha chiqindi qabul qilish imkoniyati yaratildi.

Chiqindilar bilan ishlash jarayonida samaradorlikni oshirish maqsadida qo'shimcha 22 ta maxsus texnika lizing asosida xarid qilinib, hududiy chiqindi poligonlariga yetkazib berildi. Natijada chiqindilar bilan ishlashga mo'ljallangan maxsus texnikalar — assenizator, samosval, avtoyuklagich, buldozer, kompaktor, ekskavator, treyler, tirkama va avtokranlarning umumiy soni 333 taga yetkazildi.

Texnik bazani modernizatsiya qilish doirasida yil boshidan 1,7 mlrd so'm mablag' hisobidan 154 ta maxsus texnika joriy va kapital ta'mirdan o'tkazildi. Bundan tashqari, mavjud texnikalarning 218 tasiga GPS qurilmalari o'rnatilib, ularning harakati ustidan masofaviy monitoring tizimi joriy etildi. Ushbu chora-tadbirlar logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda texnika samaradorligini oshirish imkonini bermogda.

Chiqindi poligonlari hududlarini obodonlashtirish va ekologik barqarorlikni mustahkamlash maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024–2025–yillarda poligonlar atrofida 1,2 mln tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Bundan tashqari, qariyb 10 km uzunlikdagi ariq va lotoklar tozalandi hamda 36 ming kvadrat metr ichki yo'llar shag'allashtirildi. Mazkur tadbirlar ekologik infratuzilmani yaxshilash hamda hududlarning sanitariya holatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ekologik madaniyatni oshirish va hududlarni obodonlashtirish maqsadida 2025–yil 15–oktabrdan 15–noyabrgacha respublika miqyosida "Tozalik va ozodalik oyligi" o'tkazildi. Mazkur tadbirlar doirasida jami 422 ming tonnadan ortiq chiqindi tozalandi, 95 mingdan ortiq mahalla hududlari hamda 61 mingta jamoat joylari obodonlashtirildi. Ushbu jarayonlarda sanitar tozalash va obodonlashtirish tizimining qariyb 369 ming nafar xodimi faol ishtirok etdi hamda 66 mingdan ortiq maxsus texnika jalb qilindi.

Monitoring natijalariga ko'ra, o'tgan bir oy davomida 448 mingta huquqbuzarlik holati aniqlanib, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash bilan bog'liq qoidabuzarliklar yuzasidan tegishli tartibda choralar ko'rildi. Mazkur jarayonlarda prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya hamda ekologik nazorat organlari o'zaro hamkorlikda faoliyat olib bordilar.

Chiqindilarni qayta ishlash tizimini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025–yil 24–martdagi 56-son Farmoni¹⁸ qabul qilinib, unga muvofiq 2030–yilgacha maishiy chiqindi poligonlarini kamida 50 foizga qisqartirish vazifasi belgilandi. Ushbu maqsadga erishish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichlarini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shuningdek, chiqindilarni energiya manbai sifatida foydalanish orqali ekologik samaradorlikni oshirish maqsadida 9 ta hududda maishiy chiqindilarni termik qayta ishlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalar Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida bosqichma-bosqich joriy etilishi rejalashtirilgan.

Ushbu tashabbuslarni amalga oshirish uchun umumiy qiymati 1,3 mlrd AQSH dollariga teng investitsiya loyihalarini 2025–2027–yillarda qurish rejalashtirilgan. Loyihalar natijasida kuniga 13 ming tonna chiqindi qayta ishlanib, yiliga 2 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi hamda 1 400 ta yangi ish o'ri yaratilishi ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda respublikada 300 ga yaqin chiqindilarni qayta ishlash korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan yiliga o'rtacha 800 ming tonna chiqindi, ya'ni umumiy hosil bo'layotgan qattiq maishiy chiqindilarning qariyb 5,2 foizi qayta ishlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, qayta ishlash korxonalarida ekologik xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilish, atmosferaga zararli moddalar chiqarilishini minimallashtirish hamda aholi salomatligini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

18 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.03.2025 yildagi PF-56-son <https://lex.uz/docs/-7445858>



Sanitar tozalash xizmatlari faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida 105 ta sanitar tozalash korxonasi reyting asosida baholandi. Natijalarga ko'ra, 41 ta korxona "yashil", 53 tasi "sariq", 11 tasi esa "qizil" toifaga kiritildi. Monitoring davomida 6 oy ketma-ket "qizil" toifada qolgan 14 ta korxonaga nisbatan tegishli choralar ko'rildi, shundan 1 ta korxona bilan tuzilgan shartnoma bekor qilindi, yana 1 ta korxonaning hududi "Toza hudud" tizimiga birlashtirildi. Bundan tashqari, jarimalardan keyin ham 3 oy davomida "qizil" toifadan chiqmagan korxonalar bilan shartnomalarni bekor qilish mexanizmi joriy etildi.

Umuman olganda, chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, poligonlar sonini optimallashtirish, qayta ishlash texnologiyalarini keng joriy etish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini izchil amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki kelajak avlodlar uchun sog'lom va toza ekologik muhitni yaratishda ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha so'nggi yillarda keng ko'lamli institutsional, tashkiliy va texnologik islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatda "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modelni shakllantirish yo'lida muhim normativ-huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori¹⁹, 2024-yil 4-yanvardagi 5-son Farmoni²⁰ hamda 2025-yil 24-martdagi 56-son Farmoni²¹ ushbu yo'nalishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatlar doirasida chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, poligonlar sonini qisqartirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

O'tkazilgan ilmiy va statistik tahlillar natijalari mamlakatda chiqindilar hajmining yildan-yilga ortib borayotganligini, shu bilan birga ularni qayta ishlash darajasi hali ham rivojlanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, yiliga o'rtacha 14,8–15,1 mln tonna maishiy chiqindi hosil bo'layotgan bo'lsa-da, ularning qariyb 5–5,2 foizi qayta ishlanmoqda. Bu esa sirkulyar iqtisodiyot tizimini yanada keng joriy etish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Shu bilan birga, mamlakatda chiqindilarni boshqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natijalar bermoqda. Xususan, chiqindi yig'ish texnikalari sonining 2017–yildagi 1 461 tadan 2024–yilda 3 390 taga yetgani logistika tizimining sezilarli darajada kengayganligini ko'rsatadi. Shuningdek, chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda chiqindilarni termik qayta ishlash asosida elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihalarining amalga oshirilishi sirkulyar iqtisodiyot infratuzilmasining rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, chiqindilarni qayta ishlash orqali ikkilamchi xomashyo ishlab chiqarish hajmini oshirish, import qilinadigan resurslarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengayadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida quyidagi ustuvor takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, chiqindilarni saralash tizimini bosqichma-bosqich majburiy tartibda joriy etish zarur. Aholi va xo'jalik subyektlari tomonidan chiqindilarni turiga qarab alohida yig'ish tizimini kengaytirish orqali qayta ishlash uchun zarur bo'lgan xomashyo hajmini oshirish mumkin. Shu maqsadda turar joy massivlarida zamonaviy konteyner tizimlarini joriy etish hamda raqamli monitoring vositalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va modernizatsiya qilishni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Xususan, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar hamda imtiyozli kreditlar ajratish orqali investitsion muhitni yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi zarur.

Uchinchidan, eko-sanoat parklarini tashkil etish va rivojlantirish tizimini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday parklar doirasida bir korxona chiqindisini boshqa korxona uchun xomashyo sifatida foydalanish orqali yopiq ishlab chiqarish sikllarini shakllantirish mumkin. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va chiqindilar hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

19 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022–yil 2-dekabrda PQ-436-son <http://lex.uz/docs/-6303230>

20 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.01.2024 yildagi PF-5-son <http://lex.uz/uz/docs/-6732832>

21 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.03.2025 yildagi PF-56-son <https://lex.uz/uz/docs/-7445858>



To'rtinchidan, chiqindilarni qayta ishlash va energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish zarur. Xususan, chiqindilarni termik qayta ishlash asosida elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi zavodlar sonini ko'paytirish orqali chiqindilar hajmini kamaytirish bilan bir qatorda energiya ta'minotini diversifikatsiya qilish imkoniyati kengayadi.

Beshinchidan, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish muhimdir. Jumladan, IoT texnologiyalari, blokcheyn tizimlari hamda sun'iy intellekt asosidagi monitoring platformalarini joriy etish orqali chiqindilar harakatini nazorat qilish, logistika xarajatlarini optimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Oltinchidan, aholining ekologik madaniyatini oshirish va sirkulyar iqtisodiyot bo'yicha bilimlarini kengaytirish muhim vazifalardan biridir. Shu maqsadda maktablar, oliy ta'lim muassasalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali ekologik ta'lim va targ'ibot ishlarini tizimli ravishda kuchaytirish zarur.

Yettinchidan, chiqindilarni qayta ishlash sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni yaratishga qaratilgan ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash lozim. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar tomonidan sirkulyar iqtisodiyot bo'yicha ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish tizimini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ekologik muhitni yaxshilash hamda resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim strategik ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar natijasida chiqindilarni qayta ishlash ulushini sezilarli darajada oshirish, poligonlar sonini qisqartirish hamda ekologik xavfsiz va barqaror iqtisodiy modelni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kirchherr, J., Reike, D., Hekkert, M. (2017). Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions. *Resources, Conservation and Recycling*, 127, 221–232. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0921344917302835>
2. Bocken, N. M., De Pauw, I., Bakker, C., Van der Grinten, B. (2016). Product design and business model strategies for a circular economy. *Journal of Industrial and Production Engineering*, 33(5), 308–320. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/21681015.2016.1172124>
3. Geissdoerfer, M., Pieroni, M. P., Pigosso, D. C., Soufani, K. (2020). Circular business models: A review. *Journal of Cleaner Production*, 277, 123741. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0959652620337860>
4. Psarommatis, F., May, G. (2025). A cost–benefit model for sustainable product reuse and repurposing in circular remanufacturing. *Sustainability*, 17(1), 245. <https://www.mdpi.com/2071-1050/17/1/245>
5. Makov, T., Font Vivanco, D. (2018). Does the circular economy grow the pie? The case of rebound effects from smartphone reuse. *Frontiers in Energy Research*, 6, 39. <https://www.scopus.com/pages/publications/85046623880>
6. Warmington-Lundström, J., Laurenti, R. (2020). Reviewing circular economy rebound effects: The case of online peer-to-peer boat sharing. *Resources, Conservation and Recycling: X*, 5, 100028.
7. Rigamonti, L., Mancini, E. (2021). Life cycle assessment and circularity indicators. *The International Journal of Life Cycle Assessment*, 26, 1937–1942.
8. Prosman, E. J., Cagliano, R. (2022). A contingency perspective on manufacturing configurations for the circular economy: Insights from successful start-ups. *International Journal of Production Economics*, 249, 108519. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0925527322001128>
9. Corona, B., Shen, L., Reike, D., Carreón, J. R., Worrell, E. (2019). Towards sustainable development through the circular economy: A review and critical assessment of current circularity metrics. *Resources, Conservation and Recycling*, 151, 104498.
10. O'zbekiston Respublikasi hukumati portal. Sanitation (chiqindilarni boshqarish tizimi). <https://gov.uz/oz/sanitation>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>